

**MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK SOHASINING
DOLZARBLIGI, BUGUNGI KUNDAGI YUTUQ VA KAMCHILIKLARI**

Muhiddinova Mahbuba Nuriddinovna

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik"

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada filologiyaning muhim bir bo'limi bo'lgan matnshunoslik va manbashunoslik sohalari, ularning rivojlanish bosqichlari hamda til va madaniyatdagi ahamiyati yoritiladi. Bugungi kundagi matnshunoslik sohasida erishilgan yutuqlar va mavjud kamchiliklar hamda ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: manbashunoslik, matnshunoslik, qo'lyozmalar, qadimgi manba, tadqiqotlar, til, madaniyat, tilshunoslik, adabiyotshunoslik

Abstract: This article discusses the field of textual studies and source studies, which is of great importance in the thorough study of language, culture and history, its relevance today, and the achievements and current shortcomings in the field.

Keywords: source studies, textual studies, manuscripts, ancient source, studies, language, culture, linguistics, literary studies

Insoniyat qadim tarixni, necha asrlar oldingi til va madaniyatni, ijtimoiy-siyosiy holatni bilish uchun qadimgi qo'lyozma manbalarga tayanadi. Qadimgi manbalar bebaho xazina hisoblanib, tilning, madaniyatning to hozirgi kundagi holati shakllangungacha bo'lgan bosqichlaridan xabar beradi. Qadimgi yozma manbalar bilan manbashunos va matnshunoslar shug'ullanadilar. Qo'lyozma manbalarni o'qish, tushunish va to'g'ri tadqiq qila olish bir muncha murakkab ish bo'lib soha vakillaridan chuqur bilim va malaka talab qiladi.

Manbashunoslik va matnshunoslik bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan sohalardir. Manbashunoslik tarix ilmining asosiy sohalaridan biri bo'lib, turli yozma, bosma va boshqa manbalarni o'rganish hamda ulardan ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etadi. Manba yoki tarixiy manba tushunchasi keng qamrovli bo'lib, inson faoliyati natijasida yaratilgan barcha narsalar tushuniladi. Inson faoliyati natijasida yaratilgan moddiy mahsulot ma'lum bir vazifani bajarish bilan birga ayni zamonda tarixiy manba bo'lishi ham mumkin.

Manbashunoslikni aytish mumkinki, umumiy ma'noda ikki tarmoqqa bo'linadi: nazariy manbashunoslik va amaliy manbashunoslik. Nazariy manbashunoslik ma'lum bir qo'lyozmaning, asarning manbasini topishga, uni o'rganishga ishora va taklif beradi, o'zining nazariyalarini ishlab chiqadi. Amaliy manbashunoslik esa nazariy manbashunoslik taklif qilgan ilmiy tamoyillar asosida, o'sha ilm-fan uchun zarur bo'lgan qo'lyozmalarining asl nusxalarini qidirib topish, ularni solishtirish, qiyoslash, bugungi kun uchun faksimel nusxalarini tayyorlash bilan shug'ullanadi hamda joriy alifbodagi

nashrlarini tabdil etish va ularni bugungi kun kitobxonlariga yetkazish vazifalarini o'z oldiga qo'yadi. Manbashunoslik turli sohalarda qo'llaniladi, jumladan:

- Tarix: tarixiy hujjatlarni tahlil qilish.
- Arxeologiya: arxeologik topilmalarni o'rganish.
- Adabiyot: adabiy asarlarning kelib chiqishini va ularning rivojlanishini o'rganish.
- Din: diniy matnlarni o'rganish.
- Qonun: qonun hujjatlarini tahlil qilish.

Manbashunoslik va matnshunoslikda matn m'nosi keng qamrovli tushuncha. Matn deganda muallif ijod etmoqchi bo'lgan fikr va g'oyaning yozuvdagi in'ikosi tushuniladi. Matn deganda yaxlit bir asar, qo'lyozma nusxa anglashiladi. Qadimiy matnlar tadqiqi bilan matnshunoslar shug'ullanadilar. Ularning vazifalariga adabiyotshunoslik va tilshunoslikka xos bo'lgan barcha tadqiq usullarini qo'llash kiradi. Manbashunoslar matn tarixi, tadqiqi va tavsifi ustida ko'proq bosh qotirsalar, matnshunoslar ularga qo'shimcha ravishda matnning talqini tadqiqiga alohida e'tibor qaratadilar. Talqin tadqiqi badiiy asarning yozma yodgorlik sifatidagi qiymatini baholash va muallif yondashuvi, badiiy asar matni haqida to'liq tasavvur paydo bo'lishida obyektiv asos bo'lib xizmat qiladi. Bevosita matnshunoslik badiiy asarning matn zamiridagi yashirin ma'nolari, botiniy jihatlarini ochib berish, uning yaratilish tarixi matn o'zgarishiga olib kelgan holatlarni aniqlash va muallif varianti saqlanib qolmagan taqdirda asarning dastlabki ko'rinishiga yaqin matnini tuzishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Matnshunoslik turli sohalarda qo'llaniladi, jumladan:

- Ta'lim: tilni o'rganishda va o'qitishda matnlarni tahlil qilish.
- Adabiyot: adabiy asarlarni tahlil qilish.
- Jurnalistika: Matnlarni tahrir qilish va ularning samaradorligini oshirish.
- Tarjima: Matnlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish.

Manbashunoslik va matnshunoslik tarixi chambarchas bog'liq bo'lib, ikkalasi ham tarixiy tadqiqotlarning asosiy usullarini ifodalaydi. Ularning rivojlanishi bir-birini to'ldirib, birgalikda tarixiy manbalarni tahlil qilish va talqin qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Manbashunoslikning rivojlanish tarixini quyidagicha ifodalash mumkin:

- Qadimgi davr: manbalarga tanqidiy munosabatning ildizlari qadimgi Yunoniston va Rimda uchraydi. Tarixchilar, masalan, Gerodot va Tukidid, o'zlarining asarlarini yozayotganda turli xil manbalarga murojaat qilib, ularning ishonchliligini baholaganlar. Biroq, manbashunoslik mustaqil fan sifatida shakllanmagan edi.

- O'rta asrlar: bu davrda manbalarga tanqidiy yondashuv zaiflashgan, asosan diniy va an'anaviy manbalar ustunlik qilgan. Manbalarga ishonchliligi kamroq e'tibor berilgan.

- Uyg'onish davri va yangi davr: uyg'onish davrida qadimiy manbalarga qiziqish kuchaygan, bu esa manbalarni tanlash va tahlil qilishga yangicha yondashuvni shakllantirdi. Yangi davrda tarixiy tadqiqotlarning rivojlanishi bilan manbashunoslik mustaqil fan sifatida shakllanishni boshladi. Tarixchilar manbalarni tahlil qilishda ularning kelib chiqishi, muallifi, yozilgan vaqti va boshqa omillarni hisobga olishni boshladilar.



- XIX-XX asr: bu asrlarda tarixchilar manbashunoslikka ilmiy asos yaratib, manbalarni tanqidiy tahlil qilish metodlarini ishlab chiqdilar. Bu davrda Leopold fon Ranke kabi tarixchilarning ishi manbashunoslikning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. XX asrda esa manbashunoslik yangi nazariyalar va metodologiyalarni o'zlashtirdi, shuningdek, manbalar turini kengaytirdi (og'zaki manbalar, rasmlar va boshqalar).

Matnshunoslik tarixi esa quyidagi davrlarga bo'linadi:

-Qadimgi davr: matnlarning tahlili qadimgi davrlardan beri mavjud edi, ammo u lingvistik nuqtai nazardan emas, balki ma'naviy yoki adabiy talqinlarga yo'naltirilgan edi.

-Filologiya davri (XIX asr): matnshunoslikning rivojlanishi XIX asrda filologiya fani doirasida boshlandi. Filologlar tilning tarixiy rivojlanishi, adabiy janrlar va yozuvchilarning uslubini o'rganishda matnlarni tahlil qilish usullarini qo'llaganlar.

- XX asr: bu asrda strukturistik va poststrukturistika nazariyalari matnshunoslikka kuchli ta'sir ko'rsatdi. Strukturistiklar matnning ichki tuzilishiga, poststrukturistiklar esa matnning ko'p ma'noliligiga va madaniy kontekstga e'tibor qaratishgan. XX asrning ikkinchi yarmida kompyuter texnologiyalari matnshunoslikka yangi imkoniyatlar ochdi.

Ikkala fan ham tarixiy manbalarni o'rganishda chambarchas bog'liq. Manbashunoslik manbalarni tanlash, ularning ishonchliligini baholash va saralash bilan shug'ullansa, matnshunoslik esa manbalarning matni bilan ishlash, uni tahlil qilish va talqin qilish bilan shug'ullanadi. Zamonaviy tarixiy tadqiqotlarda ikkala yondashuvni birgalikda qo'llash juda muhim. Masalan, tarixchi biror voqea haqida ma'lumot topadigan hujjatning ishonchliligini manbashunoslik usullari yordamida aniqlaydi va keyin hujjat matnini tafsilotlariga chuqur kirib, ma'lumotni matnshunoslik usullari yordamida talqin qiladi.

Matnshunoslik va manbashunoslik sohalari, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan va zamonaviy dunyo sharoitida yanada dolzarb bo'lib qolgan hamda ushbu sohalarida bir qancha yutuqlarga ham erishildi. Masalan, kompyuter texnologiyalari va raqamli matnlarning rivojlanishi tufayli matnlarni o'rganish va tahlil qilishda yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi.

-Matnni qidirish, tanlash, tahlil qilish, tarjima qilish va vizualizatsiya qilish uchun kuchli dasturiy ta'minot vositalari yaratildi.

-Katta miqdordagi matnlarni tezkor va samarali tahlil qilish mumkin bo'ldi.

-Matnlarni to'plash, saqlash va tarqatish usullari soddalashtirildi.

-Ko'p sohalararo yondashuv: matnshunoslik va manbashunoslik boshqa sohalar bilan chambarchas bog'lanib, ko'p sohalararo tadqiqotlar olib borilmoqda.

-Tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, antropologiya, arxeologiya, ijtimoiy fanlar va boshqa sohalar bilan birgalikda olib boriladigan tadqiqotlar yordamida chuqurroq natijalarga erishish mumkin.

-Yangi ilmiy yondashuvlar: matnlarni tahlil qilish va talqin qilish uchun yangi ilmiy yondashuvlar rivojlanmoqda.

Xususan, o'zbek matnshunosligida ham salmoqli o'zgarishlar bo'lib, soha vakillarining tadqiqotlari, izlanishlari tufayli ushbu sohada bir qancha yutuqlarga

erishildi. So'nggi yillarda boy tarixdan ma'lumot beruvchi klassik asarlar, qo'lyozma manbalar chuqur o'rganilib, tahlil qilinib, keng ommaga ham tadqiq qilinmoqda hamda boy madaniy meros hisoblanmish qo'lyozma manbalarning saqlanishiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki bu madaniy merosni keyingi avlodlarga ham yetkazish juda ahamiyatlidir. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu sohada elektron lug'atlar, ma'lumot bazalari, onlayn kutubxonalar kabi resurslarning rivojlanganligi tadqiqotchilarga osonroq va tezroq ma'lumot olish imkonini bermoqda. Shu bilan bir qatorda ko'zga ko'rinuvchi bir qancha kamchiliklar ham yo'q emas. Tadqiqot markazlarining hammasida ham zarur texnik resurslarning yetarli emasligi tadqiqotlarning samaradorligini pasaytirmoqda hamda matnshunoslik sohasida yuqori malakali mutaxassislarning kamligi muammosi ham mavjud.

Umuman olganda, manbashunoslik va matnshunoslik sohalar o'zining rivojlanishida muhim yutuqlarga erishdi, lekin mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va zamonaviy metodologiyalarni joriy qilish orqali yanada samaraliroq natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa, tadqiqotlarda yanada yutuqlarga erishish matnshunoslikning turli sohalar bilan integratsiyasi, ilmiy tadqiqotlar uchun resurslarning ko'payishi va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Matn va uni talqin qilish tamoyillari" Toshkent-2022
2. Erkinov Aftondil, "Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari", Toshkent-2019
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Matnshunoslik>
4. <https://www.youtube.com/watch?v=LUwbWcZRtCo>
5. <https://yandex.ru/video/preview/14488364516186015324>